



UDK: 911:(575.146)

Madina ISOYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: isayevam833@gmail.com

BuxDPI dotsenti, PhD N.Shadiyeva taqrizi asosida

RECREATION-TOURIST OPPORTUNITIES OF BUKHARA REGION AND THEIR EFFECTIVE USE

Annotation

This article covers the geographical interpretation of the terms recreation and tourism. The recreation resources of the Bukhara region, its geographical basis, tourism opportunities available in the region and their effective use, ways to optimize the recreation and tourism resources of the region are analyzed.

Key words: Recreation, tourism, Geotourism, ecotourism, "silk road", "Qubbat-ul-Islam", natural resources, Ark, Tower of Minaret, religious tourism, pilgrimage tourism.

РЕКРЕАЦИОННО-ТУРИСТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается географическая трактовка терминов рекреация и туризм. Анализируются рекреационные ресурсы Бухарской области, ее географическая основа, туристические возможности, имеющиеся в регионе и их эффективное использование, пути оптимизации рекреационно-туристических ресурсов региона.

Ключевые слова: Рекреация, туризм, Геотуризм, экотуризм, «Шелковый путь», «Куббат-уль-Ислам», природные ресурсы, Ковчег, Минарет калян, религиозный туризм, паломнический туризм.

BUXORO VILOYATINING REKREATSIYA-TURISTIK IMKONIYATLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada rekreatsiya va turizm atamalarining geografik izohi keng yoritilgan. Buxoro viloyatining rekreatsiya resurslari, uning geografik asoslari, viloyatda mavjud turistik imkoniyatlari va ulardan samarali foydalanish, viloyatining rekreatsiya-turistik resurslari optimallashtirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Rekreatsiya, turizm, Geoturizm, ekoturizm, “ipak yo‘li”, “Qubbat-ul islom”, tabiiy resurslar, Ark, Minorai kalon, diniy turizm, ziyorat turizmi.

Kirish. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining yetakchi tarmog‘i bo‘lgan turizm sohasiga bo‘lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, rekreatsiya-turizm yo‘nalishi aholining sog‘lig‘ini tiklash, dam olish ehtiyojlarini qondirish hamda madaniy-ma‘rifiy salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, mintaqaviy rivojlanishni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois rekreatsiya-turistik resurslarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish masalasi hozirgi davrda dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rekreatsiya va turizm sohasida, xususan, Buxoro viloyatining rekreatsiya – turistik resurslari va ulardan samarali foydalanish masalasida juda ko‘plab olimlar ish olib borgan. Rus olimlari N.N.Baranskiy, T.V.Zvonkova (1962, 1965), o‘zbek olimlaridan P.G‘ulomov (1966), M.Umarov (1967), P.Barotov (1977), A.Z.Zokirov (1997), I.Q.Nazarov, (1971-2007), U.N.Nurov(1990), I.SH.Allayorov, X.R.Toshov (2008), A.M.Mavlonov, M.K.Ergasheva, A.A.Qodirov, I.E.Mirzayeva va G.S.Halimovalarning ilmiy ishlarida ham ushbu mavzu tahlil etilgan. Mavzuni yoritishda tarixiy, ekspeditsion, geografik tahlil usullaridan bevosita foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritish jarayonida ilmiy-nazariy tahlil usuli, statistik tahlil usuli, taqqoslash usuli, tizimli va kompleks usullardan foydalanildi.

O‘zbekiston hududining tabiiy an‘anaviy turizm shakllari bilan bir qatorda, tabiatga yaqin bo‘lgan, ekologik va sarguzasht xarakterga ega turizm turlari ham mavjud bo‘lib, bu bevosita rekreatsiya va u qamrab olgan bir qancha turizm sohaslariga borib taqaladi. Rekreatsiya bu - umumiy geografiyaning maxsus tarmog‘i hisoblanib, uning rivojlanishi jamiyatning eng dolzarb va eng nozik tizimlari bilan chamcharchas bog‘langan. Rekreatsiya qadimdan insonning mehnat jarayonida sarflangan kuchini qayta tiklashga xizmat qiladigan bayramlar, ta‘tillar, dam olish maskanlarining faoliyatini anglatgan. Bugungi kunda ushbu atamaning mohiyati va qamrovi shu qadar kengaydiki, endilikda bu atama faqatgina tabiiy geografik atama bo‘lib qolmay, bevosita hududning iqtisodiy samaradorligi, taraqqiyotiga ham ta‘sir etuvchi muhim atamaga aylandi. O‘zbekiston hududida rekreatsiya-turizm sohasining shakllanib rivojlanishi bevosita hududning boy tarixiy merosi bilan bir qatorda tabiatidagi nodir geografik jihatlarining ham alohida hissi mavjud. Ayniqsa, Buxoro viloyati bu borada ikki tomonlama ustunlikka ega hududlardan hisoblanadi deb bemalol aytish mumkin. Chunki, viloyat ko‘hna tarixi, islom dinining markazlaridan biri ekanligi va bu ko‘hna va navqironlik bugungi kunda ham o‘z mavqei bir xilda tutib turganligi so‘zimiz isbotidir. Tabiiy resurslar esa viloyatning qishloq xo‘jaligi, sanoati, energetikasi va turizm kabi sohaslarining rivojida muhim rol o‘ynaydi. Mamlakat miqyosida turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida Buxoro viloyatida ham qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi” hamda tegishli hukumat qarorlari(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-

yil 28-yanvardagi PF 60-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 28.09.2022-yildagi 543-sonli qarori) asosida viloyatda turizm infratuzilmasini yaxshilash, yangi turistik obyektlar barpo etish va xizmatlar sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, so'nggi yillarda Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar soni barqaror o'sib bormoqda, turizm sohasida bandlik kengaymoqda hamda xizmatlar hajmi ortmoqda. Bugungi kunga qadar (2026yil 1-yanvar) Buxoro viloyatiga tashrif buyurgan turistlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1.4 baravarga ortib, 7 mlndan ortdi. Bunda qariyb 2.6 mln xorijiy (1.6 marta ko'p), 4,5 mln mahalliy (1.2 marta ko'p) sayyoh oqimi qayd etildi. Bugungi kunda viloyatimizda turizm va unga yondosh sohalarda 81,9 ming nafar aholining bandligi ta'minlangan, mehmonxonalarning band qilish darajasi 84 %dan 93% ga ko'tarildi, sayyohlarning viloyatda qolish davri 1,5 kunga uzaydi. Shu davr mobaynida xorijiy turistlarga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha 707,3 mln AQSH dollari qiymatida tushum qayd etildi (1,8 marta ko'p) (<https://lex.uz/> sayti).

Viloyatda turizmni rivojlantiruvchi muhim yo'nalishlardan biri geo va ekoturizm hisoblanadi. Hududning katta qismi cho'l va chalacho'l zonalaridan iborat bo'lib, bu tabiiy landshaftlar shahar shovqinidan uzoq, osoyishta muhitni izlovchi sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Jayronxona qo'riqxonasi, cho'l massivlari hamda Amu-Buxoro va Amu-Qorako'l kanallari atrofidagi hududlarda ekologik va sog'lomlashtirish turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Tuz, balchiq va qum bilan davolash kabi xizmatlarni yo'lga qo'yish esa ekstremal va sog'lomlashtirish turizmi ixlosmandlarini jalb etishi mumkin.

Shuningdek, Buxoro vohasidagi suv omborlari atrofida dam olish infratuzilmasini shakllantirish, noyob tabiiy obyektlarni ekoturistik resurs sifatida baholash orqali hududning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. Buxoro va Navoiy viloyatlari chegarasida joylashgan To'dako'l suv ombori atrofida tashkil etilgan dam olish maskanlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur hududda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari natijasida minglab sayyohlarni qabul qilish imkoniyati yaratilgan, yangi ish o'rinlari tashkil etilgan va xizmatlar ko'lamini kengaygan.

Shu o'rinda Buxoro va Navoiy viloyatlari tutashgan hududda joylashgan To'dako'l suv ombori atrofida tashkil etilgan yangi dam olish maskani haqida alohida to'xtalib o'tish joiz. Bu maskanda 2020-2024-yillarda xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan umumiy qiymati 50 milliard so'mlik 11 ta loyiha ishga tushirilib, kuniga 2000 nafar sayyoh qabul qilish imkoniyati yaratilgan. Bugungi kunda To'dako'l suv havzasi atrofida umumiy loyiha qiymati 20,2 milliard so'm bo'lgan ikkita dam olish maskani faoliyat yuritib kelmoqda.

"To'dako'l" turistik-rekreasion zonasi tashkil etilgandan keyin 90 gektar yer maydonida bir vaqtning o'zida 7000 nafar sayyohga xizmat ko'rsatuvchi umumiy qiymati 390 milliard so'm bo'lgan mehmonxonalar majmuasi, umumiy sog'lomlashtirish, savdo va turizm hamda boshqalar barpo etiladi. Ushbu loyihalarning amaliy natijasi sifatida viloyatda 1550 ta yangi ish o'rni yaratilganligini aytish mumkin. Yaqindan aholiga xizmat ko'rsata boshlagan dam olish maskani loyihasi umumiy qiymati 9 milliard so'm bo'lib, 10 ta 4 o'rinli kemping, 80 dan ortiq kunlik foydalanish uchun so'rilar hamda sohil bo'yida dam olish, cho'milish imkoniyatlari mavjud. 2026-yilda esa yana 50 o'rinli mehmonxona, sauna va basseyn ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Ushbu turistik-rekreasion zona ham Buxoro viloyati ham Navoiy viloyati uchun sayyohlarga xizmat ko'rsatish imoniyatlarini kengaytiruvchi muhim dastur hisoblanadi. (<https://Uzbekistan.travel> sayti ma'lumotlari)

Bundan tashqari, Buxoro viloyatida bu kabi turizm sohalarining yana bir qancha turlari mavjud. Ularni umumlashtirgan holda bir qancha guruhlariga ajratish mumkin:

- Tarixiy-madaniy turizm.
- Diniy turizm.
- Ekoturizm va tabiiy resurslar.
- Mahalliy an'anaviy va gastronomik turizm.
- Termal va sog'lomlashtirish turizmi.
- Cho'l turizmi.

Ushbu yo'nalishlarning har biri Buxoro viloyatining turizmida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, juda qadimiy va yangilanib borayotgan soha bo'lgan termal va sog'lomlashtirish turizmi sohasi faqatgina Buxoro viloyati uchun xos sohalardan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, bevosita viloyat hududning asosiy qismini egallab yotgan cho'l mintaqalarida geotermal suvlarining ahamiyati boshqa hududlarga qaraganda yuqoridir. Termal va sog'lomlashtirish turizmi deb dam olish, davolanish va sog'liqni tiklash maqsadida termal suvlar, tabiiy balchiqlar va boshqa tabiiy shifobaxsh resurslardan foydalanishga aytiladi. Issiqlik bilan davolashda shifobaxsh balchiqdan, parafin-ozokeridan ham foydalaniladi. Shifobaxsh balchiqlar bilan davolash vaqtida birmuncha yuqori haroratdan foydalanishga to'g'ri keladi. Isitilgan balchiqning badanga surtilganda yupqa qavati tezda sovib qoladi, bu issiqlikning bir qismi teriga berilishi sababli hosil bo'ladi. Bu issiqlik asta-sekin berilganligi sababli, balchiq sekin soviydi. Shuning uchun balchiq organizmga uzoq vaqt o'z issig'ini yo'qotmay ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda ham bir qancha termal va sog'lomlashtirish sanatoriyalari mavjud bo'lib, ular Buxoro shahri, G'ijduvon va Shofirkon tumanlarida hamda Qorako'l tumanida joylashgan[1].

Buxoro viloyatida joylashgan "Sitorai Mohi Xosa", "Issiq suv" va "Juyizar" kabi sanatoriyalar nafaqat mahalliy aholi, balki respublikaning turli hududlaridan keluvchi dam oluvchilar uchun ham muhim sog'lomlashtirish maskanlari hisoblanadi. Ushbu sanatoriyalarda zamonaviy tibbiy uskunalar, fizioterapiya, balchiq bilan davolash, parhez ovqatlanish va boshqa xizmatlar yo'lga qo'yilgan.

"Sitorai Moxi xosa" sanatoriyasi - dengiz sathidan 500 metr balandlikda, Buxoroviloyatining shimoliy qismida, Buxoro amirining yozgi qarorgohi hududida tashkil etilgan iqlimiy va balneologik kurort maskan (1-rasm). Ushbu dam olish va davolanish sanatoriyasi bevosiya viloyatning tarixiy joyarini turistlarga yaqindan ko'rsatishi bilan bir qatorda Respublikaning barcha viloyatlaridan kelgan aholi uchun tabiiy vositalar bilan davolanish maskani ham hisoblanadi. Ushbu maskanda bir qancha tabiiy davolanish omillari – iqlimi va termal sulfat –xloridli mineral suv buyrak, asab tizimi, harakat-tayanch va oshqozon organlari uchun davo. Bu yerga dam olish maqsadida kelganlar uchun shinam yotoqxona, oshxona, klub, sport maydonchalari, kutubxona, muzey, basseyn va sauna kabi xizmatlar mavjud. Bundan tashqari shaharning tarixiy obidalariga sayohatlar ham tashkil qilinadi.

Sanatoriyda bemorlarni davolashda:

- Zamonaviy tashxislash va davolash asbob-uskunalar;
- fizioterapiya;-lazeroterapiya;-shifobaxsh balchiq;
- uqalash;-fitobar;-davolash jismoniy tarbiya;
- parhez ovqatlanish kabi usullaridan foydalaniladi.



1-Rasm. Sitorai “Moxi xosa” sanatoriyasi.

Viloyatdagi yana bir xuddi shunday dam olish va davolanish maskani Buxoro tumanida joylashgan “Issiq suv” sanatoriyasi (2-rasm). Ushbu maskan 1980-yil avgust oyida tashkil topgan bo‘lib, Buxoro shahridan 8km uzoqlikda Buxoro umani Yurimbolo QFY hududida chang va shovqindan uzoqda joylashgan. Maskanning umumiy maydoni 4ga ni tashkil etib, atrofi o‘zidan fitonsidlar chiqaradigan juda ko‘p manzarali daraxtlar, archa, mevali daraxtlar, atirgullar bilan ko‘kalamzorlashtirilgan. Shifoxona hududida 1200m chuqurlikdan 520 issiqlikda chiqib turgan ma‘danli suv shifoxonaning gavhari – “tashrif qog‘ozi” hisoblanadi. Bu yerda yurak qon tomir kasalliklariga, asab, nevrir, radikulit, insultdan keying holat, oshqozon-ichak kasalliklarida, qandli diabet, semizlik, osteoxondroz, disk griyasi, poliartrit, bursit, ginekologik kasalliklar, bolalar xoreyasi, astma, nafas yo‘li kasalliklari, teri kasalliklari va boshqa shu bilan bog‘liq kasalliklarni davolash va oldini olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. “Issiq suv” MCHJ tashkilotining statistikasiga ko‘ra, ushbu shifo maskanida 2025-yil yanvar oyidan 2026-yil yanvar oyiga qadar jami 6096 kishi borib davolangani qayd etilgan.



2-Rasm. “Issiq suv” fizioterapiya shifo maskani.

Bundan tashqari Shofirkon tumanida joylashgan “Juyizar” sanatoriyasi ham shu yerdagi mahalliy aholining salomatligi tiklash va dam olishi uchun xizmat qiluvchi muhim maskan hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Viloyatning rekreatsiya–turistik resurslardan oqilona foydalanish masalalarini tahlil qilish quyidagicha xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi:

- Birinchidan, infratuzilmani rivojlantirish muhimdir.
- Buxoroning mavjud tarixiy-madaniy merosidan samarali foydalanish uchun zamonaviy mehmonxona, restoran va boshqa xizmat ko‘rsatish obyektlari barpo etilishi lozim. Yo‘l transport infratuzilmasini yaxshilash, aeroport va temir yo‘l stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali sayyohlarning kelish va ketish jarayonini osonlashtirish mumkin.
- Ikkinchidan, turizmning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish lozim.
- Hozirgi kunda Buxoro asosan tarixiy va ziyorat turizmi bilan mashhur bo‘lsa-da, ekoturizm, sog‘lomlashtirish turizmi, agro-turizm va gastronomik turizm kabi sohalarni rivojlantirish katta potensialga ega. Masalan, Jayron ekomarkazi va Qizilqum cho‘li sarguzasht va ekoturizm ixlosmandlari uchun jozibador joy bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, mineral suv manbalaridan samarali foydalanish esa sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishga xizmat qiladi.
- Uchinchidan, raqamli texnologiyalarni turizmga tatbiq etish lozim.
- Bugungi kunda global turizm sohasi raqamli xizmatlar orqali rivojlanmoqda. Buxoroning tarixiy maskanlari va diqqatga sazovor joylarini raqamli shaklda targ‘ib qilish, virtual ekskursiyalar yaratish, onlayn bron qilish tizimini yo‘lga qo‘yish va ijtimoiy tarmoqlar orqali faol reklama qilish xalqaro sayyohlarni jalb etishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ergasheva M.K., Isayeva M.N., Temirova M.A. Quyi Zarafshon okrugining rekreatsion resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari. Экономика и социум. 2024. -Б. 94-98
2. Isayeva M.N “Buxoro vohasining rekeatsiya resurslari va ulardan foydalanishning geografik asoslari” Rekreatsion resurslarni baholash va turistik mashrutlarni xaritalash:ilmiy-uslubiy yondashuvlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya 18.04.2025y Buxoro.
3. L.V.Djurayeva., J.A.Namozov., M.M.Mahmudov “Rekreatsiya va turizm geografiyasi” O‘quv qo‘llanma. Chirchiq “Oltin baliq business” 2023y 22-23 betlar.
4. Зокиров А.З “Ўзбекистонинг шифобахш ресурслари ва шифоғоҳ масканлари” Тошкент 1997й
5. Назаров И.К. Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси. Бухоро.1994. 67 бет.
6. Нуров У.Н. Бухоро вилояти иқлими ва унинг ресурслари. Бухоро. 1996. 46 бет.
7. <https://Uzbekistan.travel> sayti
8. <https://lex.uz/> sayti
9. Buxstat.uz sayti